



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-mart

VII-8-47-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining
2025-yil 14-yanvardagi “Hududlarni rivojlantirish hamda aholi muammolarini
hal etishda mahalliy Kengashlar deputatlari va senatorlarning “mahalla yettiligi”
bilan o‘zaro hamkorligini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi
KQ-35-V-sonli Qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 14-yanvardagi “Hududlarni rivojlantirish hamda aholi muammolarini hal etishda mahalliy Kengashlar deputatlari va senatorlarning “mahalla yettiligi” bilan o‘zaro hamkorligini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi KQ-35-V-sonli, Xalq deputatlari Samarcand viloyati Kengashining 2025-yil 24-fevraldagi VII-7-19-7-0-K/25-sonli qarorlari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, sakkizinch sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 14-yanvardagi “Hududlarni rivojlantirish hamda aholi muammolarini hal etishda mahalliy Kengashlar deputatlari va senatorlarning “mahalla yettiligi” bilan o‘zaro hamkorligini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi KQ-35-V-sonli Qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

- tumanni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ijrosini samarali nazorat qilish hamda mahallalardagi muammolarni hal etishda tuman Kengashi deputatlarining “mahalla yettiligi” bilan o‘zaro hamkorligini amalga oshirish sxemasi 1-ilovaga muvofiq;
- tumanni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ijrosini samarali nazorat qilish hamda mahallalardagi muammolarni hal etish bo‘yicha hamkorlik yo‘nalishlari 2-ilovaga muvofiq;

- tuman Kengashlar deputatlari tomonidan respublika darajasidagi muammoli masalalarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga taqdim etish sxemasi 3-ilovaga muvofiq;

- tuman mahallalariga biriktirilgan xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri M.Teshayev va tuman hokimining birinchi o‘rnbosari (N.Jo‘lmatov) bilan birgalikda:

- har yili 25-yanvarga qadar tumanni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, chora tadbirlar, loyihalar to‘liq xatlovdan o‘tkazilishini tashkil etsin;

- har yili 1-fevralga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, Oliy Majlis Senati, Senat Kengashi va Hukumat qarorlari, oliv darajadagi tashriflar davomida erishilgan kelishuvlar yuzasidan ishlab chiqilgan “yo‘l xaritalari”, tumanini rivojlantirish dasturlarida belgilangan chora-tadbirlarni manzilli o‘rganish hamda samarali nazoratni amalga oshirish rejasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun xalq deputatlari viloyat Kengashiga kirtsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining deputatlari va tuman Kengashi kotibiyati mudiri M.Teshayev bilan birgalikda:

- tumanni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ijrosini samarali nazorat qilish hamda mahallalardagi muammolarni hal etishdagi “mahalla yettiligi” bilan o‘zaro hamkorlikni 1-ilovadagi sxema asosida yo‘lga qo‘yish;

- aholi bilan muloqot jarayonida ko‘tarilgan, sektor, “mahalla yettiligi” tomonidan taqdim etilgan muammoli masalalarni sessiyalarda muhokama qilish;

- har yili 15-fevralga qadar tuman aholisini qiyab kelayotgan muammolar o‘rganilishini hamda ularni hal etish bo‘yicha takliflar tayyorlanishini ta’minlash;

- har yili 20-fevralga qadar taqdim etilgan takliflarni umumlashtirib, kelgusi yil uchun ishlab chiqiladigan hududni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yillik dasturida inobatga olish uchun tuman hokimligiga taqdim qilish;

- har oyda respublika va viloyat darajasidagi muammoli masalalarni 3-ilovadagi sxema asosida xalq deputatlari viloyat Kengashiga taqdim etib borish;

- har chorakda tuman Kengashi sessiyasida tumanni kompleks ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yillik dasturi ijrosini hamda mahallalardagi muammolarni hal etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni muhokama qilish;

- mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashi majlisida davlat organlari vakillarining, mahalla fuqarolar yig‘inida “mahalla yettiligi” a’zolarining hisobotlarini eshitishda tegishli mahallaga biriktirilgan deputatining ishtiropini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rnbosari (N.Jo‘lmatov) har oy yakuni bo‘yicha tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yillik dasturlari ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlarni xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib, navbatdagi yil uchun tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yillik dasturlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonlariga tuman Kengashi deputatlari va “mahalla yettiligi”ni jalb etsin hamda ularning takliflarini inobatga olsin.

6. O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (G.To‘ychiyev), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov), tuman hokimining o‘rnbosari- oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i S.Djumayeva, Yoshlar ishlari tuman bo‘limi (L.Abduqaxxorov), tuman Ichki ishlari bo‘limi (A.Ochilov), tuman soliq inspeksiysi (N.Razzokov), tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori N.Jo‘rayev uch kunlik muddatda mazkur qaror mazmun-mohiyatini tumandagi barcha “mahalla yettiliklari”ga yetkazish choralarini ko‘rsinlar.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (J.Safarov), “Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun” gazetasi bosh muharriri O‘.Usmonov mazkur qaror asosida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar

samaradorligini tuman hokimligining rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar va tuman gazetasida muntazam ravishda yoritib borilishini ta'minlasinlar.

8. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 25-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 4-apreldagi “Mahallalardagi muammolarni hal etishda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va senatorlarning “Mahalla yettiligi” bilan o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi KQ-706-IV-sonli Qarori ijrosini ta’minalash to‘g‘risida”gi VI-100-46-7-96-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiya raislari zimmasiga yuklatilsin.

10. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining
2025-yil 28-martdagি
VII-8-47-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Tumanni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ijrosini samarali nazorat qilish hamda mahallalardagi muammolarni hal etishda tuman Kengashi
deputatlarining “mahalla yettiligi” bilan o‘zaro hamkorligini amalga oshirish**
SXEMASI

O‘rganiladigan masalalar	<ul style="list-style-type: none">- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Prezident raisligida o‘tkazilgan majlis bayonlari, oliy darajadagi tashriflar davomida erishilgan kelishuvlar doirasida ishlab chiqilgan “yo‘l xaritalari”;- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati hamda Senat Kengashining qarorlari;- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;- xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlari;- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tuman hokimligining hujjatlari;- tashabbusli budget jarayonida g‘olib deb topilgan loyiham;- mahalliy Kengash deputatlarining “mahalla yettiligi” bilan o‘zaro hamkorligidagi masalalar;- “mahalla yettiligi”ning kollegial qarorlari asosida ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam va ajratiladigan subsidiyalar.		
O‘rganishga jalb etiladiganlar	<ul style="list-style-type: none">- tuman Kengash deputatlari, Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi rahbari, tuman idora va tashkilotlari vakillari, o‘zi saylangan okrugdagi “mahalla yettiligi” vakillari, sektor shtabi		
Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
1-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati	Tuman Kengash deputatini “mahalla yettiligi” bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun u saylangan okrugdagi hududlarga (mahallalarga) biriktiradi.	2 kun
2-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati	Tegishli ijro etuvchi hokimiyat organlarini jalb etgan holda hududni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, chora-tadbirlar, loyiham (keyingi o‘rinlarda dasturlar) to‘liq xatlovdan o‘tkazilishini tashkil etadi.	Har yili 25-yanvargacha
3-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, Oliy Majlis Senati, Senat Kengashi va Hukumat qarorlari, oliy darajadagi tashriflar davomida erishilgan kelishuvlar doirasida ishlab chiqilgan “yo‘l xaritalari”, hududni rivojlantirish bo‘yicha dasturlarda	Har yili 1-fevralgacha

		<p>belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini manzilli o‘rganish hamda samarali nazoratni amalga oshirish Rejasi ishlab chiqilishini ta’minlaydi. Ushbu Reja xalq deputatlari viloyat Kengashi raislari tomonidan tasdiqlanadi (namunadagi shaklda).</p> <p>“Tashabbusli budget” jarayoni bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashi qarori bilan manzilli ro‘yxat tasdiqlangandan so‘ng rejaga o‘zgartirish kiritiladi.</p>	Manzilli ro‘yxat tasdiqlangandan so‘ng 3 kunda
4-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati, “mahalla yettiligi”, sektor shtabi	<p>Rejada belgilangan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatadi hamda amaliy yordam ko‘rsatib boradi, vazifalarning bajarilmasligi va ortda qolish sabablarini o‘rganadi hamda tegishli takliflarni shakllantiradi.</p> <p>Mahallalarda fuqarolar qabulini tashkil etadi hamda “mahalla yettiligi” doirasida hal etiladigan masalalar bo‘yicha tegishli choralarini belgilaydi.</p>	Har hafta Har oyda
5-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati	O‘rganish va aholi bilan muloqot natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni tuman Kengash kotibiyatiga taqdim etadi.	Har hafta dushanba kuni
6-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyyati	Deputatlar tomonidan taqdim etilgan muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni tegishli komissiyalar o‘rtasida taqsimlaydi.	Kelib tushgandan keyin 2 kunda
7-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyalari	<p>Taqdim etilgan muammolarni tuman darajasidagi mutasaddi idora va tashkilotlar vakillari bilan birgalikda o‘rganib, hal etish choralarini ko‘radi.</p> <p>O‘rganish natijalari bo‘yicha o‘z yechimini topmagan, tuman darajasida yechiladigan muammolarni Kengash sessiyasi muhokamasiga kiritadi.</p>	Doimiy
8-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyyati	Tegishli ijro etuvchi hokimiyat organlarini jalb etgan holda Reja ijrosi bo‘yicha mahallalar kesimida monitoring ma’lumotlarini tayyorlab, tuman Kengash raisiga taqdim etadi.	Har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning 10-sanasigacha
9-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi	Aholi bilan muloqot jarayonida ko‘tarilgan, sektor, “mahalla yettiligi” tomonidan taqdim etilgan muammolarni sessiya	Doimiy

boshlanishidan oldin muhokama qiladi.

Reja ijrosi yuzasidan tegishli idora va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi hamda ular faoliyatiga baho beradi.

Muammolar masalalarni hal etish bo'yicha qo'shimcha choralarни belgilaydi.

Har chorak yakuni
bo'yicha keyingi oyning
20-sanasigacha

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 28-martdagи
VII-8-47-7-96-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Kattaqo‘rg‘on tumanini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ijrosini
samarali nazorat qilish hamda mahallalardagi muammolarni hal etish
bo‘yicha hamkorlik
YO‘NALISHLARI**

1. Aholining ijtimoiy xizmatlardan xabardorligini oshirish bo‘yicha:
 - “mahalla yettiligi” vakillari ishtirokida mahalla aholisi bilan muloqot tashkil etish (har oyda bir marotaba fuqarolarni qabul qilish);
 - “mahalla yettiligi” vakillari bilan birgalikda davlat ijtimoiy xizmatlari mazmun-mohiyati bo‘yicha tushuntirishlar olib borish; mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning ahamiyatini aholiga yetkazish.
2. Mahalla hududini rivojlantirish, aholi muammolarini samarali hal etish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minalash, madaniy-ma’rifiy tadbirdlarni amalga oshirish bo‘yicha:
 - hududni rivojlantirishga qaratilgan dastur va loyihalar, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish tadbirdlari ijrosini nazorat qilish;
 - hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliq inspektori va ijtimoiy xodimning belgilangan vazifalarni o‘zaro hamkorlikda bajarishini yo‘lga qo‘yish;
 - mahallada aholini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish, kambag‘al oilalarga ajratilayotgan mablag‘larni maqsadli va manzilli yo‘naltirish;
 - Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasiga qonunchilikka muvofiq jalb etilgan mablag‘lar va homiylik xayriyalaridan maqsadli foydalanish;
 - mahallada sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni saqlash, milliy qadriyatlarini targ‘ib qilish, madaniy-ma’rifiy tadbirdlarni amalga oshirish;
 - “mahalla yettiligi”ning ijtimoiy yordam va ajratiladigan subsidiyalar to‘g‘risidagi kollegial qarorlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish va asosli qabul qilish;
 - mahalla hududida qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, shu jumladan, ta’lim, tibbiy xizmat, sport, savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish.
3. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minalash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha:

- mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida kredit va subsidiyalar ajratilishida ko'maklashish, bu borada tijorat banklari bilan hamkorlikda ishlash;

- kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga to'siq bo'layotgan muammolarni hal etish;

- o'zini o'zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan ishsiz, shu jumladan, "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga faoliyatini boshlash uchun belgilangan mezonlarga asosan subsidiyalarni to'g'ri ajratish (tomorqa yer egalariga yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish, sug'orish vositalarini xarid qilish, urug'liklar va ko'chatlar sotib olish va boshqa asbob-uskunalar);

- aholi bandligini ta'minlash;

- mahallada "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturida belgilangan vazifalar, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar ijrosini ta'minlash;

- mehnat migratsiyasidan qaytgan shaxslarga reyintegratsiya yordami ko'rsatish va ularning bandligini ta'minlash.

4. Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bilim va ko'nikmalarini egallashda ularga ko'maklashish va rag'batlantirish bo'yicha:

- xotin-qizlar bandligini ta'minlash, oilaviy va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, kreditlar ajratilishiga ko'maklashish;

- xotin-qizlarni hudud drayveridan kelib chiqqan holda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish;

- xotin-qizlar o'rtasida reproduktiv salomatlik qoidalarini, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, sport tadbirlariga jalb etish;

- "Ayollar daftari"dagi xotin-qizlarga belgilangan mezonlar asosida ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish, uy-joy uchun subsidiyalar ajratish;

- tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda faol ishtirok etish.

5. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirish bo'yicha:

- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga belgilangan mezonlar asosida moddiy yordam, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilish uchun subsidiyalarni to'g'ri ajratish (asbob-uskunalar, mehnat qurollari, urug'lik va ko'chatlarni xarid qilish va boshqa);

- yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, o'qitish kurslari xarajatlarini qoplash;

- yoshlarning ishga joylashishiga ko'maklashish;

- yoshlar o'rtasida turli madaniy-ma'rifiy hamda sport tadbirlari tashkil etish;

- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan yoshlarning to'lov-kontrakt summasining bir qismini to'lab berish.

6. Mahallada huquqbazarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash bo'yicha:

- mahallada huquqbazarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsiz muhitni ta'minlash;

- mahalla hududida kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga barham berish bo'yicha qonunchilikda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholi, ayniqsa, yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish;

- voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, terrorizm, ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish.

7. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish, davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha:

- aholining ijtimoiy xizmat va yordamlar, shuningdek, ijtimoiy ish faoliyati haqida xabardorligini oshirish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishni tashkil qilish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxs nomidan ijtimoiy xizmat va yordamlardan foydalanish uchun so'rovnama (ariza) kiritish;

- ichki resurslarni, shu jumladan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'ngillilarni (qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar, ko'ngillilar, homiyalar) ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishga jalb qilish hamda ularning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- aholiga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmat va yordamlar to'g'risida, shuningdek, aholining mazkur xizmatlardan foydalanishga bo'lган huquqlari bo'yicha tushuntirish berish.

8. Mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash bo'yicha:

- tadbirkorlarga soliq xizmatlarini ko'rsatish, hududdagi imkoniyatlarni ishga solish, soliq bazasini kengaytirish, soliqlarni undirish va mahalla byudjetining daromadini shakllantirish;

- tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish hamda o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning kichik biznes toifasiga o'tishiga amaliy yordam ko'rsatish;

- norasmiy bandlikni qisqartirish bo'yicha tegishli choralarini amalga oshirish;

- aholining, tadbirkorlarning qonunchilik hujjatlarida belgilangan soliq imtiyozlarini haqida xabardor qilish.

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining
 2025-yil 28-martdagи
 VII-8-47-7-96-K/25 -son qaroriga
 3-ilova

**Mahalliy Kengashlar deputatlari tomonidan respublika darajasidagi muammoli masalalarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga taqdim
 etish
 SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
1-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati	Tuman Kengashi deputatlarining yuqori darajada hal etiladigan muammoli masalalar hamda ularni hal etish bo‘yicha takliflarini viloyat Kengashiga kiritadi.	Har oyning yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasigacha
2-bosqich	Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati	Kiritilgan muammoli masalalar hamda ularni hal etish bo‘yicha takliflarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish uchun tegishliligi bo‘yicha doimiy komissiyalarga taqdim etadi.	Kelib tushgan kundan e’tiboran 2 kun
3-bosqich	Xalq deputatlari viloyat Kengashi doimiy komissiyalari	Taqdim etilgan muammoli masalalarini mutasaddi idora va tashkilotlar vakillari bilan birgalikda o‘rganadi, muhokama qiladi hamda hal qilish choralarini ko‘radi. Muhokama yakunlari bo‘yicha respublika darajasida hal etiladigan muammoli masalalar yuzasidan takliflarni kotibiyatga taqdim etadi.	Kelib tushgan kundan e’tiboran 1 hafta
4-bosqich	Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati	Respublika darajasida hal etiladigan muammoli masalalar bo‘yicha takliflarni viloyat hokimligi bilan birgalikda ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga Kengash raisining imzosi bilan kiritadi.	Har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar
5-bosqich	Oliy Majlis Senati devonining Hududiy vakillik organlari faoliyatini o‘rganish markazi, Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va budget masalalari boshqarmasi	Respublika darajasida hal etiladigan muammoli masalalar bo‘yicha hududlardan yuborilgan takliflarni umumlashtirib, Senatning tegishli qo‘mitalariga taqdim etadi.	Kelib tushgan kundan e’tiboran 2 kun

6-bosqich

Oliy Majlis Senati qo'mitalari

Taqdim etilgan muammoli masalalar bo'yicha takliflarni mutasaddi vazirlik va idoralar vakillari bilan birgalikda o'rganadi, muhokama qiladi hamda hal etish choralarini ko'radi.

Zarur hollarda, Senator so'rovi, Parlament so'rovi institutlaridan foydalanadi, Senat yalpi majlisi muhokamasiga kiritadi.

Doimiy ravishda

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining
 2025-yil 28-martdagি
 VII-8-47-7-96-K/25 -son qaroriga
 4-ilova

**Tumanni rivojlantirish hamda aholi muammolarini hal etishda tuman Kengashi deputatlarining “Mahalla yettiligi” bilan o‘zaro hamkorligini yo‘lga
 qo‘yish bo‘yicha mahallalarga biriktirilgan deputatlar**

RO‘YXATI

Nº	Okrug raqami va nomi	Tuman deputatining F.I.Sh	Ish joyi va lavozimi	Biriktirilgan mahallalar
1	1-Omonboy	Niyazova Maryam Kadirovna	Kattaqo‘rg‘on tumanidagi “Kumush tola” xususiy korxonasi bosh direktori, ta’sischi	Go‘zal mahalla fuqarolar yig‘inining Go‘zal qishloqlari, Qozoq ovul hududlari hamda Omonboyko‘prik mahalla fuqarolar yig‘inining Omonboy, Hayvar, Qo‘ng‘irot va Yanoq qishloqlari, Bunyodkor mahallasi Dring qishlog‘i hamda Yangiqiyot mahallasi Yangi Ulus qishlog‘i aholi punktlari
2	2-Katta-arab	Xudayberdiyev Alisher Aktamovich	Kattaqo‘rg‘on tumani davlat o‘rmon xo‘jaligi direktori	Kumushkent mahalla fuqarolar yig‘inining Kattaarab va Lo‘blaxur qishloqlari, Qushbegi mahalla fuqarolar yig‘inining Shiypon, Uchravot, Kushbegi Xo‘jalar qishloqlari, Yangiqiyot mahallasi Yangiqiyot qishlog‘i hamda Bunyodkor mahallasi Chig‘anoq qishlog‘i va Qorako‘lcha mahallasi Qorakulcha qishlog‘i aholi punktlari
3	3-Omonkalxat	Xusanov Ubaydullo Shokirovich	Kattaqo‘rg‘on tumani Tibbiyot birlashmasi OP va OSHPlar koordinatori	Melixo‘ja mahallasining Melixo‘ja, Tongqo‘rg‘on, Enamyaxshi, Omonkalxat mahallasi Omonkalxat, Tollisoy, Ravotli, Qorabek, Xo‘ja qishloqlari, Alijon mahallasining Navro‘z qishlog‘i hamda SHo‘rak mahallasining Erkinnafas qishlog‘i aholi punktlari
4	4-Qoradaryo	Djo‘rayev Ro‘zimurod	Mudofaaga ko‘maklashuvchi	Zarqo‘rg‘on mahallasining Quyravot qishlog‘i,

№	Okrug raqami va nomi	Tuman deputatining F.I.Sh	Ish joyi va lavozimi	Biriktirilgan mahallalar
		Bozorovich	“Vatanparvar” tashkilotining Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi o‘quv-sport texnika klubi boshlig‘i	Qoradaryo mahallasiing Qoradaryo, Siplon, Buxoro ko‘chalari, Yangihayot mahallasi Xakimoqsoqol, Boynazar, Tojiklar qishloqlari hamda Yakkabog‘ mahallasining Yakkabog‘, Iska, Zarafshon qishloqlari aholi punktlari
5	5-Polvontepa	Qodirova Marxabo Eshpulatovna	Kattaqo‘rg‘on tumani 35-umumiyl o‘rtta ta’lim maktabi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari	Polvontepa mahallasi Boyaka,Muxtor, Yormatqozi, Polvontepa qishloqlari, Qorako‘lcha mahalla fuqarolar yig‘inining Xudoyqo‘lobod va Tayanch qishloqlari hamda Balandravot mahallasi Balandravot, Tuynak, Uzunbo‘z, Qilich qishloqlari aholi punktlari
6	6- Mullatog‘ay	Mardanov Ibodullo Xushniyozovich	Kattaqo‘rg‘on tumani “Oybek” fermer xo‘jaligi raisi	Mullatog‘ay mahalla fuqarolar yig‘inining Mullatog‘ay, Bahrin, Xo‘jaqo‘rg‘on, Xo‘shal va Olmazar qishloqlari, Yangiravot mahalla fuqarolar yig‘inining Yangiravot, Tepaqo‘rg‘on, Durbesh, Olchin va Oltibek qishloqlari, Oyjon mahalla fuqarolar yig‘ini Oyjon qishlog‘i aholi punktlari.
7	7-Kadan	Baxtiyorov Sodiq Sobir o‘g‘li	Kattaqo‘rg‘on tumani “Charog‘on” mahalla fuqarolar yig‘ini yoshlar yetakchisi	Kadan mahalla fuqarolar yig‘inining Kadan qishlog‘i, Mulloko‘rpa mahalla fuqarolari yig‘iniing Mulloko‘rpa, Xo‘jaqo‘rg‘on, Chim, Talmaron qishloqlari hamda M.Ulug‘bek mahallasi aholi punktlari
8	8-Chag‘atoy	Razzoqov Hotam Anvarovich	Kattaqo‘rg‘on tumanidagi “INTEKO TRADE FAMILY” MCHJ rahbari	Chig‘atoy mahalla fuqarolar yig‘inining Chig‘atoy, Tug‘begi, Toqchixo‘ja va Xovosh qishloqlari, Jumaboy mahalla fuqarolar yig‘inining Jumaboy, Chuvilloq, Past, Oltinsoy qishloqlari hamda Nisbat mahalla fuqarolar yig‘inining Nisbat, Xalfa va Ko‘kcha qishloqlari aholi punktlari
9	9-Tarnov	G‘ulomov Rustam Toshpo‘lotovich	Kattaqo‘rg‘on tumani “Javlon” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi	Tarnov mahalla fuqarolar yig‘inining Tarnov, Jarboshi, Javlon mahalla fuqarolar yig‘inining Javlon, Arabxona, Abdol qishloqlari,Chuyanchi

№	Okrug raqami va nomi	Tuman deputatining F.I.Sh	Ish joyi va lavozimi	Biriktirilgan mahallalar
				mahalla fuqarolar yig‘inining qishloqlari aholi punktlari
10	10-Yodgorxo‘ja	Ubaydullayev Doston Ergash o‘g‘li	Kattaqo‘rg‘on tumani 2-son kasb-hunar maktabi direktori	Qiyot mahalla fuqarolar yig‘inining Qiyot va Yangiravot ko‘chalari, Yodgorxo‘ja mahalla fuqarolar yig‘inining Yodgorxo‘ja, Qushravot va Azizxo‘ja qishloqlari, M.Ulug‘bek, Kadan, Charog‘on hamda Do‘stlik mahalla fuqarolar yig‘ini aholi punktlari
11	11-Ulug‘bek	Irgashev Abduvali Aktamovich	“Yangi avlod” xususiy maktabi direktori	M.Ulug‘bek, Kadan, Do‘stlik, Qiyot mahalla fuqarolar yig‘inlari hamda Mundiyon mahallasi, Sutxur qishlog‘i va Saroy massivi aholi punktlari
12	12-Madaniyat	Barakayeva Mavluda Damirovna	Kattaqo‘rg‘on tumani “Madrasa” mahalla fuqarolari yig‘ini xotin-qizlar faoli	A.Navoiy, Bog‘ot, Madrasa mahalla fuqarolar yig‘inlari aholi punktlari
13	13-Kichikmundiyon	Xolova Maksuda Asatovna	Kattaqo‘rg‘on tumani “TEMUR MUSAFO QURILISH” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari	Mundiyon mahallasining Mundiyon qishlog‘i, Saroy, Jonkel mahallasining Jonkel, Malliq, Maxsimsaroy, Beshkent qishloqlari hamda Tavoron mahallasining Chubboz va Tavoron qishloqlari aholi punktlari
14	14-Tavoron	Tilovov Saydali Akram o‘g‘li	Kattaqo‘rg‘on tumani 1-sonli ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktabi direktori	Qirg‘iz mahallasining Buzug‘li, Novqa, Qirg‘iz qishloqlari, Tavoron mahallasining Beshdarg‘at qishlog‘i, Boltabek mahalla fuqarolar yig‘inining Laylakxona, Boltabek, Jaloyer qishloqlari hamda Qo‘shhovuz mahalla fuqarolar yig‘inining Qo‘shhovuz qishlog‘i aholi punktlari
15	15-Burgan	Nasriddinov Jamshid To‘lqinovich	Kattaqo‘rg‘on tumani hokimi	Yonboshsoy mahalla fuqarolar yig‘inining Beshbuloq, Chorpara, Talliqul, Qo‘rg‘on, Oqsoqolovul, Gala, Darog‘zi qishloqlari, Burgansoy mahalla fuqarolar yig‘inining Burgan, Tuman, Saroy, Mavlon, Qo‘shshamozor, Jilqihaydar, Olmasuvon, O‘rtta Burgan qishloqlari hamda Jizmonsov mahalla fuqarolar yig‘inining Jizmon, Tog‘chinoq va

№	Okrug raqami va nomi	Tuman deputatining F.I.Sh	Ish joyi va lavozimi	Biriktirilgan mahallalar
				Uyshun qishloqlari aholi punktlari
16	16-Moybuloq	Nigmatov Xusnidin Rashidovich	Kattaqo‘rg‘on tumani “Negmatov Azizbek” fermer xo‘jaligi raisi	Moybuloq mahalla fuqarolar yig‘inining Moybuloq, Arabxona qishloqlari, Qoqsoy mahalla fuqarolar yig‘inining Chirik, Qoq, Tegirmonboshi, Mingovul, Ko‘ktosh qishloqlari hamda Yonboshsoy mahalla fuqarolar yig‘inining Quduq qishlog‘i aholi punktlari
17	17-Andoq	Abduraxmonov Jasur Bekpulatovich	Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti yoshlari masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha dekan o‘rnibosari	Sebuston mahalla fuqarolar yig‘inining Sebuston, SHO‘r, Buzaxona, Qizilqosh qishloqlari, Qo‘shqo‘ton mahalla fuqarolar yig‘inining Qo‘shqo‘ton, Ulisoy, Soyosti, Xonaqa Toshhovuz qishloqlari hamda Andoqsoy mahalla fuqarolar yig‘inining Qorakamar Dorog‘zi, Qo‘rg‘on, Bo‘yrabosh, Qizilovut qishloqlari aholi punktlari
18	18-Vayrot	Teshayev Muhiddin Xoliulovich	Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi kotibiysi mudiri	Nayman mahalla fuqarolar yig‘inining Nayman, Yangibahrin, Qiymaduz, Esavoytepa, Qozoqlar, Bulomiqcha qishloqlari, Yovi mahalla fuqarolar yig‘inining Yovi, Mangaron, SHO‘r qishloqlari hamda Vayrot mahalla fuqarolar yig‘inining Vayrot va Ravot koshona qishloqlari aholi punktlari
19	19-Qo‘shtepa	Jo‘rayev Kamoliddin Boymurodovich	Kattaqo‘rg‘on tumani “Qo‘shtepa” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi	Fayzikent mahalla fuqarolar yig‘inining Shammi, Ravot, Qo‘shofiz qishloqlari, Qo‘shtepa mahalla fuqarolar yig‘inining Qo‘shtepa, Go‘lva qishloqlari hamda Yangiobod mahalla fuqarolar yig‘inining Yangiobod, Ko‘mir, Tasmachi qishloqlari aholi punktlari
20	20-Yangiyo‘rg‘oncha	Suyunov Elbek Norbekovich	Kattaqo‘rg‘on tumani 95-umumiy o‘rtta ta’lim maktabi direktori	Uyshun mahallasining Uyshun, Zarafshon hamda Sho‘rak mahallasining SHO‘rak qishloqlari, Alijon mahallasining Alijon qishlog‘i hamda Yangiyo‘rg‘oncha mahallasi Yangiyo‘rg‘oncha qishlog‘i aholi punktlari

№	Okrug raqami va nomi	Tuman deputatining F.I.Sh	Ish joyi va lavozimi	Biriktirilgan mahallalar
				Sho'rak mahallasi
21	21-Suv hovuzi	Achilov Kamol Rashidovich	Kattaqo'rg'on tumani "Saroyqo'rg'on" mahalla fuqarolar yig'ini raisi	Saroyqo'rg'on mahallasi Burqut, Qiyot qishloqlari, Yangiqiyot mahallasi Alliyor, Bozorboshi qishloqlari, Nomozpolvon mahallasi Nomozpolvon qishlog'i hamda Kumushqirg'oq mahallasining Kumushqirg'oq qishlog'i
22	22-Kattako'rpa	Raximov Ergash Xoshimovich	«Agrobank» aksiyadorlik tijorat bankining Samarqand viloyat boshqarmasi Kattaqo'rg'on filiali boshqaruvchi o'rbinbosari	Olmazor mahallasining Murtak, Sariosiyo, Abulqosim qishloqlari, Kattakurpa mahalla hududi, Zarqo'rg'on mahallasining Kalqo'rg'on, Oxun, Ko'kan, Qipchoqravot, Yangiqishloq, Olmazor va Qoradaryo qishloqlari hamda Kattako'rpa mahallasining Kattako'rpa va Kichikko'rpa qishloqlari aholi punktlari
23	23-Mullakichkina	Mirzaxonova Dilorom Bakirovna	Kattaqo'rg'on tumani 51-umumiyl o'rta ta'lrim maktabi direktori	Navbahor mahalla fuqarolar yig'inining Mullokichkina qishlog'i, Go'zal mahalla fuqarolar yig'inining Qozoqovul qishlog'i, Balandchordara mahallasiing Balandchora, Yakkashayt qishloqlari aholi punktlari
24	24-Kattaming	Sadriddinov Aziz Aktamovich	Kattaqo'rg'on tumani "ANVARJON-BIZNES-INVEST" MCHJ ish boshqaruvchisi	Valijon mahalla fuqarolar yig'inining Miraqast Mang'iton, Tog'aykusa, Ravotobod qishloqlari, Kattaming mahalla fuqarolar yig'inining Kattaming, Kichikming, Nuriston va Guliston qishloqlari aholi punktlari
25	25-Mo'minxo'ja	Rabbimov Dilshod Raxmonovich	Kattaqo'rg'on tumani "Mo'minxo'ja" mahalla fuqarolar yig'ini raisi	Qumoq mahalla fuqarolar yig'inining Qumoq, Bahrin va Yangiqishloq qishloqlari, Mo'minxo'ja mahalla fuqarolar yig'inining Qipchoqravot, Mo'minxo'ja, Zotxon, Laylak, Chashma, Tug'ma, Bolta qishloqlari hamda Qumoq mahalla fuqarolar yig'inining Qipchoq va Burmon qishloqlari aholi punktlari